

ISSN: 2545-0573

TOG'AY MUROD ROMANLARIDA G'OYAVIY AKTUALLIK VA XALQ OG'ZAKI IJODI NA'MUNALARINI QO'LLASHDA IJODKOR MAHORATI

Norboyeva Zarina

Qarshi davlat universiteti, Filologiya fakulteti talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

g'oya, g'oyaviy aktuallik, mavzu, milliy ruh, qahramon xarakteri, ifoda, uslub, til xususiyatlari, obraz, obrazli fikr, lisoniy-badiiy tasvir, folklor an'analari, maqol, matal, ibora.

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek nasrida o'ziga xos ijod yarata olgan Tog'ay Murod asarlarining g'oyaviy xususiyatlari, mavzu dolzarbligi va asarlarida folklor an'analaridan foydalanishdagi ijodkor mahorati kabilar tadqiq ostiga olinadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

O'z asarlarida milliylik ruhi, o'zbekona hayot muomala munosabati, xarakter-xususiyatlarini yuksak darajada tasvirlab, shaxs tarbiyasiga muhim e'tibor qaratgan yozuvchilarimizdan biri Tog'ay Muroddir. Uning qisqa umri davomida yaratgan salmoqli ijodiy merosi adabiyotshunoslarimiz tomonidan "ko'p va xo'p" o'rganildi, munosabat bildirildi. Bildirilgan bu munosabatlardan Tog'ay Murodning shaxs va ijodkor sifatidagi qiyofasi, uning ruhiy olamini yanada yaqinroq bilish imkoniyati paydo bo'ldi.

Tog'ay Murodning o'zbek nasri rivojiga qo'shgan hissasi, xususan, romanchilikdagi o'ziga xos tasvir va mahorati ko'pgina tanqidchilar tomonidan o'rganilgan. Mazkur ishlar natijasida Tog'ay Murod asarlari, qahramonlari o'quvchilar qalbidan kengroq o'rin oldi.

O'zbek adabiy tanqidchiligida Tog'ay Murodning romanlari zamonaviy romanchiligimizning eng jiddiy yutuqlari sifatida e'tirof etiladi. Yozuvchining ayniqsa, "Otamdan qolgan dalalar" asari juda ko'pchilik munaqqidlar e'tirofiga sazovor bo'lgan. Muallifning o'z so'zlariga tayangan holda tanqidchilikda bu asar "O'zbek xalqiga qo'yilgan haykal sifatida" baholangan va u uzoq yashaydigan hali ko'pchilikni o'ylantiradigan, ta'sirlantiradigan romanlaridan ekanligi, ta'kidlangan.

Darhaqiqat, "Otamdan qolgan dalalar" romani kitobxonni o'ziga rom eta oladigan, fikrga, o'ygatoldiradigan mushohada va munozara qilishga undaydigan asar.

Chunonchi, yirik munaqqid A.Rasulov Tog'ay Murod asarlari xususidagi maqolasida "Halol ijod" deb nom beradi. Shu nomning o'ziyoq bizga yozuvchining mavzu doirasi milliy ruhiyatimiz bilan bog'liqligi, qahramonlari esa mard, or-nomusi bilan, bo'z bola yuragida o'ti bor tanti yurt farzandlari ekanini eslatadi.

Tog'ay Murod ixchamgina romanida mustamlakachilikning boshlanish, uning turli ko'rinishlari haqida ishonarli taassurot qoldiradi. Romanning ifoda uslubi haqida gapirganda uning til xususiyatlariga ham alohida to'xtalmoq joiz. Roman umuman Tog'ay Murod asarlarini o'qigan kitobxon Surxon vohasiga

tushib qolgandek bo'ladi. Gapirish, yurish – turish, yashash tarzi – qo'yinki qahramon hayoti bilan bog'liq barcha jihatlar surxondaryoliklarni yodga solaveradi. Bu joy odamlariga xos tantilik, soddalik biroq or – nomusda yuksaklik, hurmat, ehtirom – bari qalbni o'ziga ohangrabodek tortadi. Munaqqidlar bu xususiyatlari xususida ham o'z qarashlarini bayon etishgan.

I.Yoqubovning ta'kidicha mazkur roman o'ziga xos milliy , o'zbekona ruh bilan sug'orilgan. Romanning badiiy tili sheva – lahjalarga nihoyatda boy bo'lib, syujet chiziqlari, monolog va uning turfa ko'rinishlari, xususan ichki monolog va dialoglarning mag'izdorligi ta'minlangan. Asarda etnik xususiyatlar – soddadil, tanti, surxondaryoliklarning tabiatidagi o'ziga xos keskinliklar asar qahramonlari xarakteri orqali tasvirlangan.

Adibimiz o'z asariga yetti o'lchab , bir kesib , shunday nom topib qo'yganki, xuddi, uzukka ko'z qo'ygandek, asarga mos keladi. Bu adibga shuhrat keltirgan, adib bo'lib tanilishiga zamin bo'lgan asardir. Asar qo'lma-qo'l bo'lib o'qildi. Bu asarni adib o'z tanasidan chiqib ketib, o'zini ham, atrofidagi jamiki narsalarni, odamlarni, bohor-u kuzlarni, qish-u saratonlarni, osmonni to'ldirgan turnalarni unitib, bir darvish qiyofasiga kirib, dalli devona bo'lib yozdi.

Buyuk adibimiz Said Ahmad undan: "Shu qissani qanday yozganingni eslay olasanmi", deb so'raganlarida, u jindak o'ylanib, "O'ngimda emas, tushimda yozgan ekanman", deb javob bergandi.

Haqiqatdan ham, yozuvchi o'z qahramoni hayotini yashagan. Uning dil og'riqlarini o'z qalbidan o'tkazgan, uning orzu-o'ylari, umid-xayollarini anglagan, uning og'ir va mashaqqatli ishlarini o'zi bajargan. Adibning o'zi e'tirof etganidek, "Men bo'lajak , Dehqonqul bilan yuzma-yuz bo'ldim. Men bo'lajak... Dehqonqul dalalarini ish joyim etdim"-deydi.

Aslida, har bir ijodkor o'z asari qahramoni hayotini yashaydi, uning taqdirini o'z taqdirida ko'radi. Lekin asar qahramonligining mehnati, turmush tarzini real hayotda yashab, sinab ko'rib, qalb olamidan o'tkazib mushohada va muqoyasa qilishni kam kishi uddalay oladi. Tog'ay Murod mana shu vazifani bajardi. U "Otamdan qolgan dalalar" ni ish stolida o'tirib emas, Surxon dalalarida olti oy ishlab, yurib yozdi. Dehqonlar hayotini o'z hayotiga aylantirdi. Shu bois ham asar jonli betokror va o'ziga xos bo'lib qoldi.

U Tog'ay Murodning o'z qahramonining kasbi, yumushlari orqali ruhiga, tabiatiga kirib borishini yozuvchining chinakam mahorati ekanini tan oladi.

Asarni o'qir ekansiz, Dehqonqul obrazida o'sha davrga mansub bo'lgan minglab dehqonqullar hayoti mujassamlashganini ko'rasiz.

Tog'ay Murod mana shu achchiq haqiqatlarni jonli manzaralarda tasvirlaydi. Kitobxonni o'tmish bilan yuzma-yuz qilib, xalqning og'ir tarixini o'ziga ko'zgu sifatida tutadi. Bu tasvirlar esa insondek mukarram zotning sariq chaqalik qadr-qimmatini, e'tibori bo'lmagan qizil imperiyaning vahshiyliklaridan bizni ogoh etadi.

Adib asarlari kitobxonni o'ylatadi, yig'latadi, kuydiradi . Muhimi, kitobxon mana shunday zavqli azobdan, og'riqli huzurdan bezmaydi. Hozir o'zbek kitobxonlarining kekka, o'rta yoshli vakillari orasida adib asarlariga ipsiz bog'lanmaganlari yo'q hisobi .Tog'ay Murod adabiyotimiz osmonida yorqin iz qoldirib mangu yulduzga aylangan ijodkor.

Yozuvchi ijodi mavzu doirasining kengligi, g'oyaviy pishiqligi bilan bir qatorda romanlarida folklor an'analari, xalqimiz donishmandligi mahsuli bo'lgan maqol va matallar, hikmatli so'z va aforizmlardan o'z o'rnida foydalanishi bilan ham diqqatga sazovordir.

Maqol va matallar shaklan ixcham, mazmunan keng, obrazli va yaxlit, barqaror ohangga ega bo'lganligidan nutqda, ayniqsa, badiiy nutqda alohida ahamiyatga molikdir. Maqollarda fikrni lo'nda va tiniq obrazli ifodalash imkoniyatining mavjudligi nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashda juda qo'l keladi. Zabardast folklorshunos olim M. Afzalov ta'kidlaganidek "turmushning hamma sohalarida:

mehnat jarayonida, jonli suhbatlarda, yozma adabiyotimizda maqol va hikmatli iboralar juda ko'p ishlatiladi. Anglatilmoqchi bo'lgan fikrlar obrazli qilib ifodalanadi. Shuning uchun ham xalqimiz *“So‘zning ko‘rki — maqol”, “Yaxshi naql tomiri — aql”, “O‘talar so‘zi — aqlning ko‘zi”,-deb bekorga aytmagan”*¹

So‘z san‘atkorlari o‘z asarlarida xalq donishmandligining o‘ziga xos mahsullari bo‘lmish bunday birliklarga ko‘p murojaat qiladilar, bu borada o‘zlarining mahoratlarini namoyish etadilar. Har qanday badiiy asarning xalqchilligini, haqqoniyligini ta‘minlashda ham maqollarning o‘rni beqiyosdir. Chunki *“maqolda voqelikning o‘zi emas, balki voqelik haqida xalqning hukmi, xulosasi aks etadi”*²

Tog‘ay Murodning *“Otamdan qolgan dalalar”* romanida maqol va matallar o‘zining beqiyos emotsional imkoniyatini namoyon etgan. Tog‘ay Murodning betakror qalami ostida maqollar badiiy tasvirga alohida jilo berishga xizmat qilgan. *“Qo‘rqqan oldin musht ko‘tarar”, “Tili boshqa aslo el bo‘lmaydi”* deydilar.

Ta‘kidlash joizki, romanning Tog‘ay Murod ba‘zi o‘rinlarda xalq maqollarini o‘zgartirmasdan, aynan keltirar ekan, bu hikmatli birliklarning bevosita xalqnikiligini alohida ta‘kidlash, bunga alohida urg‘u berish maqsadida turli izohlarni ham qo‘llashni lozim ko‘radi. Bunda ko‘pincha *“deydilar, deydi burungilar, deydi o‘zbek maqoli, degan gap bor, deydi bizning hakimlar”* kabi so‘z shakllari va so‘z birikmalaridan foydalanadi.

Romanda o‘zgarishsiz qo‘llangan maqollarning matnga olib kirilishi ham barcha o‘rinlarda aynan bir xil usulda emas. Tog‘ay Murod bunda bir qancha o‘ziga xos yo‘llarni topa biladi. Masalan, ba‘zi o‘rinlarda xalq maqoli matnga badiiy niyatga muvofiq, fikrning xolis bayoni, aytilmoqchi bo‘lingan fikrning dalili sifatida go‘yoki bir iqtibosday kiritiladi: *“O‘z o‘ying, o‘lan to‘shaging”* maqoli asar qahramoni tilidan o‘zgarishga uchrab *“O‘zbek o‘z el-yurtida o‘ladi”, “O‘zbek o‘z o‘lan -to‘shagida o‘ladi”*, -deb o‘zgartirib keltiradi.³

Maqol qolipida yasalgan va izohtalab maqollar asarga ko‘p uchraydi. Tog‘ay Murod maqollarning lisoniy-estetik va badiiy-mantiqiy mohiyatini benihoya teran anglaydi. Shuning uchun ham u mavjud xalq maqoli qolipida shunday o‘tkir maqol yasaydiki, bu uning badiiy tasvir niyatiga astoydil xizmat qiladi. Bunday maqol nafaqat maqolda ko‘zda tutilgan shaxsning mohiyatini, balki buni aytgan qahramonning mazkur voqeaga bo‘lgan subyektiv munosabatini ham yaqqol ifoda etadi. Masalan, *“Tulki qiziga to‘y berdi”*. *“Asarda Dehqonqul shunday deydi: “Qor yog‘madi, deyin dedim-havoda laylaklab qor yog‘di, Laylablab qor yog‘di, deyin dedim-yerda qordan nishona bo‘lmadi”*⁴ Bu maqoldan qahramon o‘z xarakteriga xos tarzda foydalangan.

Xullas, romanda qo‘llangan xalq maqollarining barchasi badiiy matnning uzviy unsuriga aylangan. Romanda lisoniy-badiiy qimmat kasb etmagan bironta ham maqol yo‘q. Tog‘ay Murodning maqollarni roman matniga olib kirish yo‘llari, badiiy maqsadiga uyg‘un ravishda qayta qurishi, o‘zgartirishi, yangi maqol yaratish mahorati o‘ziga xosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hikmatnoma. O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. 1990
2. O‘zbek xalq maqollari. Davlat badiiy san‘ati nashriyoti. 1967
3. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. “Sharq” nashriyoti matbaa konsernining bosh tahririyati. Toshkent. 1994.

¹ Hikmatnoma. O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. 1990

² O‘zbek xalq maqollari. Davlat-badiiy san‘at nashriyoti, 1967

³ Tog‘ay Murod. “Otamdan qolgan dalalar”, “Sharq” nashriyoti-matbaa konsernining bosh tahririyati. Toshkent.-1994-y, 42-bet

⁴ O‘sha manba-106 bet

4. Umida, K., Zarina, R., & Shahram, A. (2020). Characteristics, significance and role of motivation problems in foreign language learning. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 61-65.
5. Zarina, R., Shahram, A., & Umida, K. (2020). Using games to teach management in higher education institute. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 49-52.